



## DEMOGRAFIK MUAMMOLAR STATISTIKASI

**Abdurasulova Shirinoy**

*Guliston davlat universiteti talabasi*

**Yakubov Otabek**

*Guliston davlat universiteti talabasi*

**Abduqodirov Ziyodulla**

*Guliston davlat universiteti talabasi*

***Annotatsiya:** Maqolada dunyo aholisining ta'biy o'sish suratlari, dunyo aholi soni dinamikasidagi o'zgarishlar hamda aholisonini tabiiy ko'payishini prognozlash haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** Countrymeters, aholi ko'payishi, demografik portlash, aholi sonining o'sish surati, prognoz.*

### **Kirish**

Demografik omilning o'zgarib borishi global muammo bo'lib, u ko'p jihatdan jamiyatning holati va rivojlanishini belgilaydi. Mehnat iqtisodiyoti mehnat munosabatlarning qatnashchisi bo'lgan aholi qismiga alohida e'tibor beradi.

Olimlarning hisoblashlaricha, yaqin yarim asr ichida sayyoramiz aholisi soni qariyb ikki baravar oshganidan keyin, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari barcha mamlakatlarda umuman tenglashadi.


Countrymeters loyihasi hisob-kitoblariga ko'ra, 2023-yil 15 avgust kuni dunyo aholisining soni 8 mlrddan oshdi. Ularning 4,04 mlrd nafari erkak, 3,96 mlrd nafari ayollardir. Bu bilan erkaklar va ayollar soni o'rtasidagi tafovut 1,018 ni tashkil etmoqda. Aholi sonining ko'payib borishida dunyo hududlari bo'yicha keskin tafovutlar mavjuddir. Natijada, XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlariga kelib, sayyoramizda hududiy xususiyatlarga ega bolgan demografik muammolar vujudga keldi.

### **Tahlil va Natija:**

Ideal aholi sonini aniqlash va unga erishish uchun har qanday urinish muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Bundan tashqari, biz avvalo ideal populyatsiya hajmini aniqlash uchun umumiy mezonlar bo'lishiga qarshimiz.

Ikkinchidan, shunday mezonlar bo'lgan taqdirda ham, insoniyat ideal aholi soniga qanday erishish mumkinligini bilmaydi. Chunki tug'ilishlarni oshirishga qaratilgan sa'yohatlar ham vaqtinchalik ta'sir ko'rsatadi. Ma'lum davrdan keyi bu ham samara bermay qo'yadi.

1-rasm. Dunyo aholisining yillik o'sish sur'ati



BMT e'lon qilgan so'nggi hisobotga ko'ra, 2022-yil 15 noyabr kuni dunyo aholisi 8 mlrd kishiga yetdi. 2023 yilda Hindiston Xitoyini ortda qoldirib, dunyoning aholisi eng ko'p mamlakatiga aylanishi kutilmoqda. BMT aholisi qarib borayotgan mamlakatlarga davlat dasturlarini keksalar sonining o'sishiga moslashtirish, umumiy sog'liqni saqlash va uzoq muddatli parvarish tizimlarini yaratish, ijtimoiy ta'minot, pensiya tizimlari barqarorligini oshirish kerakligini tavsiya qilgan.

Keyingi 80 yil ichida aholi soni Yaponiya, Ispaniya va Italiyada ikki baravar, Afrikaning Sahroi Kabirdan janubi-g'arbiy qismida esa uch baravar kamayib ketadi. 2100 yilga borib, 65 yoshdan oshgan odamlar soni 2,4 mlrd kishini, 20 yoshgacha bo'lganlar soni esa 1,7 milliardni tashkil qiladi. Ya'ni dunyoda keksalar yoshlardan ko'p bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlar oldida aholining qarishi va kamayishi ishchi kuchi va malaka taqchilligiga olib keladi. Keksalar ko'pligi iqtisodiy samaradorlik va innovatsiyalarni sustlashtiradi, iqtisodiy o'sish va rivojlanishni sekinlashtiradi, hukumatlar va odamlarga barqaror moliyaviy bosim o'tkazadi. Jamiyatlarda madaniy va etnik siljishlarga olib keladi, siyosiy va etnik o'zgarishlar, mamlakatlar harbiy kuchi kamayishi kabi muammolarni ham ko'ndalang qo'yadi. Hozirgi kunda ayrim davlatlar aholini ko'paytirish uchun turli mexanizmlardan foydalanmoqda. Ba'zilari ayollarga



homilasini olib tashlashni cheklamoqda. Ayrim davlatlarda ayollarning huquqlarini kengaytirish va tenglikka zid bo'lgan gender stereotiplari targ'ib qilinmoqda. BMT esa mamlakatning demografik holati qanday bo'lishidan qat'i nazar, inson huquqlarini buzuvchi aholi siyosatini qo'llashni oqlamasligini ma'lum qilgan.

## **Xulosa**

Xulosa ornida shuni aytish mumkinki dunyo aholisi soni yillar mobaynida goh kopayib goh kamayib bormoqda. Olimlarning ko'p yillik kuzatishlari natijasida dunyo aholisining soni yildan yilga ortib borishi kiyinchalik esa keskin kamayishi prognoz qilinmoqda. Bu yer shari bo'ylab turli global muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ba'zi mamlakatlarda aholi soni kopayishda davom etsa ba'zi mamlakatlarda esa tugulish soni kamayib ketishi taxmin qilinmoqda. Global muammolar oziq ovqat, yer taqchiligi, kelib chiqishi mumkin.

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev. Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: "Ozbekiston" NMIU, 2016. -56 B.
2. Mirziyoyev. Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: "Ozbekiston" NMIU, 2017. -484 B.
3. Ruzimovna, K. G., & Xolmanova, Z. Formation and Development of Axiolinguistics. International Journal on Integrated Education, 3(9), 128-131.
4. Xolmanova, Z. (2020). Kompyuter lingvistikasi. Nodirabegim:.-Toshkent, 247.
5. SEMPO, Y. E., & KİTABI, B. ULUSLARARASI TÜRK DÜNYASI.
6. Abduraxmanov. Q.X. va boshqalar. Demografiya. Darslik.-T. "Fan va texnologiya", 2014.-368 b.